D) ...4s<sup>2</sup>4p<sup>6</sup>4d<sup>10</sup>5s<sup>0</sup>

5.  $^{254}No \rightarrow x_2^+ n + y^- \beta + ^{234}Cm$

Ushbu yadro reaksiyasiga asosida 12,7 mg nobeliy yemirilishidan hosil bo'lgan elektronlar sonini hisoblang.

- A)  $12,04 \cdot 10^{19}$     B)  $6,02 \cdot 10^{19}$   
C)  $36,12 \cdot 10^{19}$     D)  $18,06 \cdot 10^{20}$

6. Temir (II) fosfat molekulasida nechtaden  $\sigma$ - va  $\pi$ - bog'lar bo'ladi?

- A) 21; 3

- B) 7; 1  
C) 28; 4  
D) 14; 2

7. 0,01 molyarli eritmalardagi moddalarni ionlar miqdori (mol) kamayib borish tartibida joylashtiring ( $a=100\%$ ).

- 1) bariy klorid;
  - 2) xlorirkid kislota;
  - 3) natriy fosfat;
  - 4) aluminim sulfat
- A) 2, 1, 3, 4              B) 4, 3, 1, 2  
C) 4, 1, 3, 2              D) 2, 3, 1, 4

8. Quyidagi iuzlarning qaysilaridagi hidroliziga uchraydi?

- 1) natriy sulfat;
  - 2) natriy sulfit;
  - 3) natriy karbonat;
  - 4) kally atsetat;
  - 5) kally sulfid;
  - 6) kalsiy nitrat
- A) 5, 6                      B) 2, 3, 4, 5  
C) 1, 6                      D) 1, 2, 3, 4

9.  $N H_{(g)} + O_2_{(g)} = N_{2(g)} + H_2O_{(g)}$  reaksiyada kiriyov muvozanat qaror topganda moddalar konsentratsiyasi (mol/l)

$[NH_3] = 0,8$ ;  $[O_2] = 0,4$ ;  $[N_2] = 0,2$  ni tashkil qildi. Reaksiya hajmi 7 l bo'lgan idishda olib borilgan bo'lsa, reaksiya uchun olingan N<sub>3</sub> va O<sub>2</sub> larning dashtabki miqdorini (mol) hisoblang.

- A) 0,4; 0,3  
B) 1,2; 0,7  
C) 2,8; 2,1  
D) 8,4; 4,9

10. Metall suv bilan ta'sirlashishi natijasida gaz ajralib chiqdi va shu eritmaga fenolftalein qo'shilganda u to'q pushti (malina) rangiga kirdi. Bu qaysi metall?

- A) temir                      B) aluminim  
C) berilliy                      D) natriy

11. Mis kuporosi va kristall soda aralashmasi tarkibida 38% suv bo'lsa, aralashma tarkibidagi mis kuporosining massa ulushini (%) hisoblang.

- A) 59,2    B) 92,6    C) 2,7    D) 7,4

12. Bir idishga hajmlari 22,4 l (n.sh.) dan bo'lgan amniak, vodorod xlorid va 746,5 g suv joylashtirildi. Hosil bo'lgan eritmaning konsentratsiyasini (%) aniqlang. (gidroliz jarayoni hisobga olinmasin)

- A) 9,6    B) 3,6    C) 14,3    D) 6,7

13. Qaysi moddalar tarkibida karbonil guruhi bo'ladi?

- A) chumoli kislota, atselen, etanol  
B) etilenglikol, benzoy kislota, propan kislota  
C) aminosirka kislota, benzol, propanal  
D) etanal, sırka kislota, etilatsetat

14. Quyidagi uglevodorodlardan geometrik izomerlari mavjud bo'lgan larini tanlang.

- 1) 2-metilpentadiyen-1,4;
  - 2) 3-metilpentadiyen-1,3;
  - 3) 2-metilbutadiyen-1,3;
  - 4) 4-metilpentadiyen-2;
  - 5) 4-metilpentadiyen-1,3;
  - 6) pentadiyen-1,3;
  - 7) 4-metil-2-etilpentadiyen-1,3.
- A) 2, 4, 6                      B) 3, 5, 6  
C) 1, 2, 4, 7                    D) 1, 3, 5, 7


15. Metanol bug'ining havo bilan aralashmasi qizdirilgan mis ustidan o'tkazildi. Olingan organik mahsulot Cu(OH)<sub>2</sub> bilan reaksiyaga kirishganda 81 g sariq cho'kma hosil bo'ldi. Reaksiyada qatnashgan spirit massasini (g) aniqlang.

- A) 16    B) 31    C) 9    D) 28

16. Chumoll kislotaning qanday entmasi "chumoli spiriti" deb ataladi?

- A) 1,25% li spirtli  
B) 35-40% li suvli  
C) 5% li xloroformli  
D) 14,5% li spirtli

17. Quyidagi molekulalardan qaysi biri DNK gidrolizida hosil bo'lmaydi?



- A) 2    B) 1    C) 4    D) 3

18. Fosforini oksidlash uchun 11,2 l (n.sh.) kislorod sarflandi. Hosil bo'lgan fosfor angidridini 320 g 10% li natriy ishqor eritmasida erildi. Hosil bo'lgan tuzning massa ulushini (%) aniqlang.

- A) 13,5      B) 17,5  
C) 16,3      D) 20,2

19.  $\text{Cl}(\text{OH})$ :  $\text{ClO}(\text{OH})$ :  $\text{ClO}_2(\text{OH})$

Ushbu qatorda birikmalarning kislotalik xossasi qanday o'zgaradi?

- A) orradi  
B) kamayadi  
C) oldiniga kamayadi, so'ngra ortadi  
D) oldiniga ortadi, so'ngra kamayadi

20. Qaysi moddaning 1 kg miqdorida 0,2743 g elektron mavjud (elektronning massasi  $9,1 \times 10^{-10}$  kg)?

- A)  $\text{C}_2\text{H}_2$  B)  $\text{CD}_4$  C)  $\text{H}_2\text{O}$  D)  $\text{CH}_4$

21.  $\text{A}_2\text{B}_{(g)} + \text{B}_{2(g)} = \text{A}_2\text{B}_{2(g)}$   
reaksiyada tezlik konstantasi 0,015 bo'lib,  $[\text{A}_2\text{B}] = 0,2$  mol/l,  $[\text{B}_{2(g)}] = 0,4$  mol/l bo'lسا, reaksiyaning tezligini hisoblang.

- A)  $1,2 \cdot 10^{-3}$  B)  $1,92 \cdot 10^{-5}$   
C)  $2,4 \cdot 10^{-4}$  D)  $0,80 \cdot 10^{-3}$

22. Quyidagi qaysi o'zgarishlarda molekul tarkibidagi uglerod oksidlaniadi?

- 1) 1,3-dibrombutan → metilisiklopropan;
  - 2) metakril kislotasi → izomoy kislotasi;
  - 3) 2-klorpropan kislotasi → alanin;
  - 4) xiormetan → xloroform;
  - 5) atsetilen → etan;
  - 6) fenol → pikrin kislotasi
- A) 4, 6      B) 2, 5  
C) 1, 2, 5      D) 3, 4, 6

23. Birinchisi elektrolizerde 1 mol, ikkinchisida 2 mol mis(l) sulfat bo'lgan eritmalar orqali 4 faradey lok o'tganda katoldarda hosil bo'lgan moddalar massalarini (g) aniqlang.

- A) 66; 128  
B) 128; 128  
C) 64; 64  
D) 64; 128

24. Tarkibida 25% qo'shimcha modda bo'lgan 200 gmarmarning termik parchalanishidan olinigan gazcho'g'langan ko'mir ustidan o'kazilganda qancha hajm (l, n.sh.) gaz olinadi?

- A) 67,2      B) 44,8  
C) 33,6      D) 38,08

25. 400 ml 0,5 molyarli aluminiy xlorid va 300 ml 2 molyarli natriy hidroksid eritmalarini aralashinidi.

Aralashma orqali 3,36 l (n.sh.) vodorod xlorid o'kazilganda hosil bo'lgan cho'kmaga massasini (g) toping.

- A) 3,9      B) 15,6 C) 11,7 D) 5,4

26.  $\text{KCl}$  va  $\text{MgCl}_2$  dan iborat 0,4 mol aralashmadagi xlorid ionini to'la cho'ktirish uchun kumush nitratning 0,4 molyarli eritmasiidan 1,25 l sarflansa, boshlang'ich aralashmadagi xloridlarning (berilgan tartibda) mol nisbatini aniqlang.

- A) 2:1 B) 3:1 C) 2:3 D) 3:2

27. Sulfat kislotanining 10% li 400 g eritmasiga necha gramm sulfat angidrid shindirilganda 30% lierima hosil boladi?

- A) 49,6 B) 24,2 C) 62,4 D) 86,5

28. 225 ml 35% li ( $\rho = 1,2$  g/ml) nitrat kislotasi eritmasini neyratlash uchun zarur bo'lgan ammlak hajmini (l, n.sh.) hisoblang.

- A) 21,2 B) 22,4 C) 33,6 D) 32

29. 1-brom-2-metilbutan va 2-brom-2-metilpropan aralashmasiga mo'l miqdorda natriy metali ta'siri etirilganda hosil bo'ladigan moddalarни belgilang.

- 1) 2,7-dimetiloktan;
  - 2) 2,2,4-trimetilgeksan;
  - 3) 2,2,5,5-tetrametilgeksan;
  - 4) 2,2,3,3-tetrametilbutan;
  - 5) 2,2,5-trimetilgeksan;
  - 6) 3,6-dimetiloktan
- A) 1, 3, 6      B) 2, 4, 6  
C) 1, 2, 5      D) 3, 4, 5

30. Pirokatexin va karbol kislotanidan iborat 0,3 mol aralashma 11,5 g natriy bilan reaksiyaga kirishishi ma'lum. Boshlang'ich aralashmadagi karbol kislotanining massa ulusagini (%) aniqlang.

- A) 30 B) 36 C) 64 D) 70

31. Quyidagi sxema asosida berigan A, B va C moddalarini aniqlang.



- A) atsetilen, etan, brometan  
B) etanol, brometan, butan  
C) benzol, nitrobenzol, anilin  
D) etan, xloretan, etanol

32. Quyida berigan  $\text{C}_6\text{H}_{12}$  tarkibili uglevodorodlardan qaysilarini giraltlanganda uchlasmchi spirit,


kaliy permanganat bilan oksidlanguanda diol-1,2 hosil qiladi?

- 1)  $\text{H}_2\text{CC}(\text{CH}_2)\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2$ ;
  - 2)  $(\text{CH}_3)_2\text{CCH}_2\text{C}_6\text{H}_5$ ;
  - 3)  $\text{H}_2\text{CC}(\text{CH}_3)(\text{CH}_2)_3\text{CH}_3$ ;
  - 4)  $\text{CH}_2\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{CHCH}_2$ ;
  - 5)  $\text{H}_2\text{CC}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)_2$ ;
  - 6)  $(\text{CH}_3)_2\text{CC}(\text{CH}_3)\text{CH}_3$ .
- A) 2, 6      B) 2, 4, 6  
C) 1, 5      D) 1, 3, 4, 5

33. 225 g glyukozaning moy kislotali bijg'ishida ajralib chiqadigan gazlar hajmini (l, n.sh.) hisoblang.

- A) 112      B) 56  
C) 84      D) 134,4

34. Takifit etilgan strukturalardan qaysi biri pirimidinka mos keladi?



- A) 2      B) 1      C) 4      D) 3

35. Mis(l) nitrat va kumush nitratlarning 0,1 molyarli eritmalaridan 400 ml dan aralashirilib, so'ngra 2 A tok kuchi bilan 1930 sekund elektroliz qilindi. Elektroliz lugagandan keyin eritmada qolgan tuzning massasini (g) toping.

- A) 11,28      B) 3,76  
C) 3,4      D) 7,52

36. Tarkibi  $\text{C}_8\text{H}_{10}\text{O}$  bo'lgan modda temir(III) xlorid bilan rangli mahsulot hosil qilmaydi. Ushbu modda vodorod bromid bilan tarkibi  $\text{C}_8\text{H}_9\text{Br}$  bo'lgan modda, kaliy permanganat ta'sirida oksidlaniib tarkibi  $\text{C}_8\text{H}_6\text{O}_2$  bo'lgan modda hosil qilsa, uning strukturasini aniqlang.



A) 2    B) 1    C) 4    D) 3

18. Ozon va kisloroddan iborat 80 g aralashma yetarli miqdordagi kaly yodid eritmasi orqali o'tkazilganda necha gramm yod ajraladi? Boshlang'ich aralashmadagi kislorodning hajmli ulushi 50% ga teng.  
A) 48    B) 254    C) 212    D) 63,5

19.  $H_2O$  va  $HClO$  molekulalar uchun quyidagi qaysi xususiyatlari umumiy?  
1) markaziy atomning gibridlanishi;  
2) markaziy atomning valentligi;  
3) markaziy atomning oksidlanish darajasi  
A) 1                      B) 1, 3  
C) 1, 2, 3                D) 2

20.  $CO$ ,  $CO_2$  va  $N_2$  dan iborat aralashma yetarli miqdordagi kisloroda yondirilib, so'ng  $Ca(OH)_2$  eritmasi orqali o'tkazilganda 20 g cho'kma tushdi va 11,2 l (n.sh.) oddiy modda orlib qoldi. Boshlang'ich aralashma hajmini (l, n.sh.) toping.  
A) 15,68                B) 13,44  
C) 17,92                D) 6,72

21. Reaksiyaning tezligini 64 marta oshirish uchun temperaturani qanchaga ( $^{\circ}C$ ) ko'tarish kerak ( $7 = 2$ )?  
A) 60    B) 30    C) 70    D) 20

22. Qaysi o'zgarishlarda molekula tarkibidagi uglerod atomining oksidlanish darajasi o'zgarmaydi?  
1) o-ksiol → tereftelik kislota;  
2) etil spirt → dietilefir;  
3) izopren → izopentan;  
4) atsetilen → oksalat kislota;  
5) vinilsirka kislota → butan kislota;  
6) nitrobenzol → anilin  
A) 3, 5    B) 1, 4    C) 1, 5    D) 2, 6

23. 800 g 5% li mis(II) sulfat eritmasining massasi 23,6 g ga kamayguncha elektroliz qilindi. Inert elektroldarda ajralgan moddalar massasini (g) aniqlang.  
1) kalodda 16 g mis;  
2) kalodda 0,4 g vodorod;  
3) kalodda 6,4 g mis;  
4) anodda 4 g kislord;  
5) anodda 3,6 g kislord;  
6) anodda 7,2 g kislord.  
A) 1, 2, 6                B) 1, 4  
C) 3, 6                D) 1, 4, 5

24. 5,75 g ishqoriy metall suvda eritilganda 2,8 l (n.sh.) gaz ajralib 20% li eritma hosil bo'lsa, reaksiya uchun necha gramm suv olingan?  
A) 40    B) 44,5    C) 50    D) 54,5

25. Natriy gidrosid va natriy karbonat massa ulushi tegishli ravishida 0,8 % va 4,24 % boligan 200 g eritma berilgan. Shu eritmaga 5,04 g natriy gidrokarbonat qo'shilgandan keyin eritmadagi gidrokarbonat va karbonat anionlarning nisbatini (mol) aniqlang ( $= 100\%$ ).  
A) 1:3    B) 1:4    C) 1:2    D) 1:6

26. Kally permanganat va kally xloraidan ( $MnO_2$  iishirokida) iborat 0,5 mol aralashma qizdirilganda 12,32 l (n.sh.) kislorod ajraldi. Boshlang'ich aralashmadagi moddalarning mol nisbatini aniqlang.  
A) 1:1,5(B) 1:1    C) 1:3    D) 1:2

27. 500 ml 90% li ( $\rho = 1,8 \text{ g/ml}$ ) sulfat kislota eritmasiga qanday hajmdagi (l, n.sh.) oltingugur(VI) oksid yut'irliganda eritmadagi kislotanining massa ulushi 95% ga teng bo'ladi?  
A) 142                B) 163,6  
C) 56,8                D) 45,8


28. Eritmaga 600 g suv qo'shilganda moddaning massa ulushi 3,5 marta kamaydi. Boshlang'ich erimanining massasini (g) hisoblang.  
A) 130    B) 380    C) 600    D) 240

29. 2-brom-2,3,3-trimetilbutan va 1-brom-2,2-dimetilbutan natriy bilan o'zaro ta'sirlashganda (Vyurs reaksiyasi bo'yicha) hosil bo'lgan alkanlardagi birlamchi, ikkilamchi va to'rlamchi uglerod atomlarining sonini aniqlang.  
A) 24, 6, 9            B) 22, 5, 9  
C) 22, 8, 11            D) 24, 7, 8

30. Fenilammoniyxlorid eritmasi va bromli suv orasidagi reaksiya oxirigacha olib boridi. Reaksiyon aralashmadan 2,4,6-tribromanilinni to'a ajratib olish uchun 1,5 moliyari natrily ishqor eritmasidan 2 l sarlandi. Boshlang'ich eritmadagi fenilammoniyxlorid miqdorini (mol) hisoblang.

A) 0,75    B) 1,0    C) 3,0    D) 0,25

31. Quyida keltirilgan o'zgarishlar natijasida hosil bo'lgan  $X_1$ ,  $X_2$  moddalarini aniqlang.




- A) azot, azot(II) oksid  
B) azot oksid, nitrit kislota  
C) azot, azot(III) oksid  
D) azot(II) oksid, azot(IV) oksid

32. Metanol va etanol aralashmasiga natriy metali ta'sir etirilganda 6,72 l (n.sh.) vodorod ajralib chiqdi. Shuncha miqdordagi spirit aralashmasi vodorod bromid bilan reaksiyaga kirishganda 62,6 g alkilibromidlar hosil bo'ldi. Boshlang'ich aralashmaning og'irligini (g) toping.  
A) 28    B) 9,6    C) 24,8    D) 18,4

33. 126 g glyukozaning spirli bijg'ishidan olingen spirit kislotagacha oksidlandi. Ushbu kislotani neytrallash uchun 20% li ( $\rho = 1,2 \text{ g/ml}$ ) natriy gidrosid eritmasidan qancha hajm (ml) olish kerak?  
A) 280    B) 129    C) 233    D) 140

34. Tarkibida pirimidin va pirrol bo'lgan moddani aniqlang.



A) 2    B) 1    C) 4    D) 3

35. 200 ml 0,1 M mis(II) nitrat va 300 ml 0,1 M kumush nitrat eritmalarining aralashmasi 4 A tok kuchi bilan 965 sekund davomida elektroliz qilindi. Elektroliz tugagandan keyin eritmadagi tuzning massasini (g) toping.  
A) 3,76    B) 5,1    C) 2,82    D) 0,96

36. Tarkibi  $C_9H_{12}$  bo'lgan aromatik uglevodorodgakonsentrirlangan nitrat va sulfat kislotalar aralashmasi ta'sir etirilganda tarkibi  $C_9H_{11}NO_2$  bo'lgan ikkita izomer aralashmasi hosil bo'ldi. Reaksiya uchun olingen aromatic uglevodorod(lar)ni aniqlang (yon

- zanjirning nitrolanishi hisobga olinmasin).
- 1) propilbenzol;
  - 2) o-ksiol;
  - 3) vinilbenzol;
  - 4) p-ksiol.
- A) 4                    B) 1, 2, 3  
C) 2, 4                D) 2

**Variant № 157**

1. Kislород va vodorod olish maqsadida suv elektroliz qilinganda, eritmaning elektr o'tkazuvchanligini oshirish uchun qaysi moddani suvg'a qo'shish kerak?

- A) mis sulfat
- B) natriy xlorid
- C) glikoza
- D) kally gidroksid

2. O.I. Mendeleyev elementlari davriy jadvalining bir guruhchasiда joylashgan element atomlari qanday xossalari bilan farq qiladi?
- 1) tashqi energetik qavatdagি elektronlar soni;
  - 2) yadro zaryad qiymati;
  - 3) elektron qavatlar sohl;
  - 4) ionlanish energiyasi;
  - 5) elektrmaniflik
- A) 1, 2, 3, 4      B) 4, 5  
C) 2, 3, 4, 5      D) 2, 3

3. Quyidagi birikmalardan tarkibidagi azotning oksidlanish darajasi va valentiliги bir xil (absolut qiymati) bo'limganlarini tanlang.
- 1) ammoniy nitrat;
  - 2) ammoniy gidroksid;
  - 3) mochevina;
  - 4) gliazin;
  - 5) kalsiy nitrid;
  - 6) nitrit kislota.
- A) 3, 5                B) 3, 5, 6  
C) 1, 4                D) 1, 2, 4

4. Kobalt(III) ionining elektron konfiguratsiyasini belgilang.
- A) ...4s<sup>2</sup>3d<sup>4</sup>
  - B) ...3s<sup>2</sup>3p<sup>6</sup>4s<sup>2</sup>3d<sup>7</sup>
  - C) ...3s<sup>2</sup>3p<sup>6</sup>3d<sup>6</sup>
  - D) ...4s<sup>2</sup>3d<sup>4</sup>

5. Radyi izotopi parchalanganda ( $Ra \rightarrow {}^{214}_{84}Po + \alpha + {}^{16}_0n$ ) 64,2 mg poloniy va  $54,18 \cdot 10^{-6}$  dona neytron hosil bo'ldi. Reaksiyaga qatnashgan radyi izotopi

- yadrosidagi neytronlar sonini aniqlang.
- A) 137    B) 133    C) 225    D) 141

6. Bariy gidrokarbonat molekulasiда nechtadan  $\sigma$ - va  $\pi$ - bog'lar bol'adi?
- A) 10; 2  
B) 5; 1  
C) 5; 2  
D) 15; 3

7. Kuchli elektrolitlarni tanlang.
- 1) ammoniy gidroksid;
  - 2) kally nitrat;
  - 3) rux gidroksid;
  - 4) vodorod ullidi;
  - 5) kalsiy xlorid;
  - 6) litiy sulfat.
- A) 2, 5, 6            B) 1, 3, 4  
C) 1, 3, 4, 6        D) 2, 5

8. Quyidagi tuzlardan qaysilar kation bo'yicha gidrolizga uchraydi?
- 1) MgCl<sub>2</sub>; 2) NaClO<sub>4</sub>; 3) KHCO<sub>3</sub>;
  - 4) AlCl<sub>3</sub>; 5) NaCl; 6) Zn(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub>;
  - 7) (NH<sub>4</sub>)<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>
- A) 1, 4, 6, 7      B) 2, 3, 5  
C) 2, 5, 7           D) 1, 3, 4, 6

9. Hajmi 0,005 m<sup>3</sup> bo'lgan idishda kimyoiy muvozatni qaror topganda HCl<sub>(g)</sub> + O<sub>2(g)</sub> = Cl<sub>2(g)</sub> + H<sub>2</sub>O<sub>(g)</sub> moddalarining konsernasiyasi (mol/l)
- [HCl] = 0,7, [O<sub>2</sub>] = 1,8 va [Cl<sub>2</sub>] = 0,6 ni tashkil qildi. Boshlang'ich moddalar miqdorini (mol) hisoblang.
- A) 9,5; 10,5  
B) 1,9; 2,1  
C) 3,5; 9,0  
D) 0,7; 1,8

10. Kally gidrokarbonat eritmasidagi qo'shimcha kally karbonatni yo'qolish uchun qaysi modda ishlataladi?
- A) bariy karbonat
  - B) kalsiy gidroksid
  - C) karbonat angidrid
  - D) vodorod xlorid

11. CuSO<sub>4</sub> · 5H<sub>2</sub>O va Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub> · 10H<sub>2</sub>O aralashmasi tarkibida 41,4% suv bo'lsa, aralashma tarkibidagi mis sulfatning massa ulushini (%) hisoblang.
- A) 7,4    B) 80    C) 51,2    D) 20

12. Suvli eritmada sodir bol'adigan qaytar reaksiyalarni aniqlang.

- 1) kally xlorid + natriy nitrat;  
2) temir(III) xlorid + kally hidroksid;  
3) bariy nitrat + natriy sulfat;  
4) kumush nitrat + natriy florid;  
5) mis(II) xlorid + xlorid kislota;  
6) natriy fosfat + kalsiy xlorid
- A) 2, 3, 6            B) 1, 4, 5  
C) 1, 5                D) 2, 3, 4, 6

13. Vodorod bromidni biriktirib oladigen moddalar qatorini belgilang.

- A) etan, etilen, alsetilen  
B) etilen, stirol, izopren  
C) bulan, bulen-2, butadiyen-1,3  
D) benzol, toluel, stirol

14. 21 g noma'lum alkenning brom bilan reaksiyasida olingan 2,3-dibromlikanga avval ishqorning suvi eritmasi, so'ngra natriy metali ta'sir ettilig'inda 6,72 l (n.sh.) gaz olindi. Alkenning nomini aniqlang.


- A) 2-metilbuten-2  
B) 2-metilbuten-1  
C) 3-metilpenten-2  
D) 2,3-dimetilbuten-2

15. Oddiy eflirlarga qaysi sinf moddalar isomer hisoblanadi?
- A) ailegid  
B) murekkab eflir  
C) bir atomli spiril  
D) keton

16. Qaynash temperaturasi qast, suvda eruvchanligi yuqori bo'lgan moddalar tanlang.

- A) enant kislota  
B) valerian kislota  
C) kapron kislota  
D) moy kislota

17. Quyidagi nukleozid qaysi ikkita molekuladan hosil bo'lgan?



- A) uratsil, riboza  
B) limir, dezoksiriboza  
C) adenin, dezoksiriboza  
D) sitozin, riboza

18. Ozon va azotdan iborat 160 g aralashma yelerli miqdordagi kally yodid eritmasi orqali o'tkazilgandan so'ng qolgan gazning massasi 112 g bo'ldi.

Boshlang'ich aralashmadagi ozonning hajmiy ulushini (%) hisoblang.

- A) 30 B) 20 C) 80 D) 70

19.  $\text{SO}_2$  va  $\text{CO}_2$  molekulalar uchun quyidagi qaysixususiyatlar umumiyligi?

- 1) markaziy atomning gibridlanishi;
  - 2) markaziy atomning valentligi;
  - 3) molekulaning fazoviystrukturasi;
  - 4) markaziy atomning oksidlanish darajasi
- A) 1, 2      B) 1, 3  
C) 2, 4      D) 2, 3, 4

20.  $\text{CO}$ ,  $\text{CO}_2$  va  $\text{N}_2$  dan iborat aralashmani lo'la yondirish uchun 1,12 l (n.sh.) kislorod sarlandi. Hosil bo'lgan gazlar aralashmasi  $\text{Ca}(\text{OH})_2$  eritmasi orqali o'tkazilganda 25 g cho'kma tushdi va 1,12 l (n.sh.) oddiy modda ortib qoldi. Boshlang'ich aralashmadagi gazlarning hajmiy ulushini (%) aniqlang.

- A) 25; 25; 50  
B) 33; 50; 17  
C) 29; 42; 29  
D) 26; 61; 13

21. Reaksiyaning tezligini 1024 marta oshirish uchun temperaturani necha °C ga ko'tarish kerak ( $\gamma = 4$ )?

- A) 60 B) 40 C) 50 D) 80

22. Quyidagi qaysi o'zgarishlarda molekula tarkibidagi uglerod oksidlanadi?

- 1) o-ksilol → tereftal kislota;
  - 2) etil spirit → diethylfer;
  - 3) izopren → izopentan;
  - 4) atsetilen → oksalat kislota;
  - 5) vinilsirkha kislota → butan kislota;
  - 6) nitrobenzol → vanilin
- A) 3,5 B) 1,4 C) 1,5 D) 2,6

23. Birinchi elektrolizerda 1,5 mol, ikkinchisida 2,5 mol mis(II) sulfat bo'lgan eritmalar orqali 5 faradey tok o'tganda katodlarda ajralib chiqqan moddalar massalarini (g) aniqlang.

- A) 96; 160  
B) 160; 160  
C) 98; 160  
D) 64; 64

24. 300 g rux sulfat eritmasiga og'irligi 20 g bo'lgan magniy plastinka solindi. Ma'lum vaqtidan

so'ng plastinkani olinib quritilganda u 28,2 g ni tashkil qildi. Eritmadagi magniy sulfatning massa ulushini (%) aniqlang.

- A) 8,2 B) 9,6 C) 6,7 D) 7,6

25. Ikkita natriy ishqori eritmalaring molyar konentratsiyalari orasidagi nisbat 1:2 ga teng. Ikkala eritnaning umumiy hajmi 30 l bo'ssa, past konentratsiyali eritmaning hajmi necha litr bo'ladi (ikkala eritmada bir xil massada  $\text{NaOH}$  eritilgan)?

- A) 10 B) 5 C) 20 D) 15

26. Tarkibida  $\text{HCl}$  va  $\text{NaCl}$  bo'lgan eritmani neyrallaha uchun 200 ml 0,5 M li NaOH eritmasi sarlandi. Hosil bo'lgan eritma tarkibidagi barcha  $\text{Cl}^-$  ionlarini cho'ktirish uchun esa 200 ml 2 molyarli  $\text{AgNO}_3$  entizmasiz surʼ boldi. Daslabki aralashma tarkibidagi moddalarining mol nisbatini aniqlang.

- A) 1:1 B) 1:3 C) 1:4 D) 1:2

27. "Navshadil spirit" tarkibidagi ammoniy gidrosid konentratsiyasini aniqlash uchun, shu eritmadan 140 g olib, uni 2% li sulfat kislota bilan titrlanganda 490 g sarlandi. Ammoniy gidrosidning konentratsiyasini (%) aniqlang.

- A) 7 B) 5 C) 12 D) 8

28. 13,2 g ammoniy sulfat va 17 g natriy nitralidan iborat aralashma uzoq vaqt davomida qizdirilib, doimiy og'irlikka keltilriganda necha gramm modda qoladi?

- A) 16 B) 30,2 C) 23,4 D) 14,2

29. 1-brom-2,2-dimetilpropan va 2-brom-2-metilpropan natriy bilan o'zaro ta'sirlashganda (Vyurs reaksiyasi bo'yicha) qanday alkanlar hosil bo'lmaydi?

- 1) 2,2,5,5-tetrametilgeksan;
  - 2) 3,3,4,4-tetrametilgeksan;
  - 3) 2,2,7,7-tetrametiloktan;
  - 4) 2,2,3,3-tetrametilbutan;
  - 5) 2,2,4,4-tetrametilpenlan;
  - 6) 2,3,3,4-tetrametilgeksan.
- A) 2, 3, 6      B) 1, 4, 5  
C) 2, 5, 6      D) 1, 2, 4

30. Anilin, benzol va fenoldan iborat 26,5 g aralashmaga vodorod xlorid yuborilganda 12,95 g cho'kma tushdi. Cho'kma

ajratilib natriy ishqori eritmasi bilan ishlov berilganda filtrat ikki qismga bo'lindi. Yuqori qismining hajmi 9,75 ml ( $\rho = 0,8 \text{ g/ml}$ ) bo'ssa, boshlang'ich aralashmadagi fenol massasini (%) aniqlang.

- A) 9,4      B) 12,95

- C) 5,75      D) 7,8

31. Quyida berilgan sxemadagi  $X_1$ ,  $X_2$  va  $X_3$  moddalarini aniqlang.



- A) xirometan, etan, karbonat angidrid
- B) etanol, sirkha kislota, etilalsetal, etanol
- C) sirkha kislota, atsetaldegid, etanol
- D) propanol, propanal, propan kislota


32. Etanol va metanol aralashmasiga natriy metali la'sir ettilirganda 2,24 l (n.sh.) vodorod ajralib chiqdi. Shuncha miqdordagi spirit aralashmasi vodorod bromid bilan reaksiyaga kirishganda 20,4 g alkilbromidlar hosil bo'ldi. Boshlang'ich aralashmadagi etanolning massa ulushini (%) aniqlang.

- A) 59 B) 46 C) 78 D) 41

33. 144 g glyukozaning biig'ishidan olingan etanol natriy bilan reaksiyaga kirishganda hosil bo'lgan vodorod hajmini (l, n.sh.) hisoblang.

- A) 43,62      B) 38,54  
C) 17,92      D) 23,45

34. Tarkibida benzol va pirimidin bo'lgan moddani aniqlang.



- A) 2 B) 1 C) 4 D) 3

35. Tarkibida mis(II) nitrat va kumush nitrat bo'lgan 500 ml eritma orqali 3860 KJ elektr miqdori o'tkazildi. Katodda har ikki metalдан hammasi bo'lilib, 2,04 g ajralib chiqdi. Boshlang'ich eritmadagi tuzlarning konentratsiyasini (mol/l) hisoblang.

- A) 0,03; 0,02

- B) 0,015; 0,01  
C) 0,02; 0,01  
D) 0,04; 0,03

36. Tarkibi  $C_9H_{12}$  bo'lgan aromatik uglevodorodga konsentrasiyaning nitrat va sulfat kislotalar aralashmasi ta'sir ettirilganda tarkibi  $C_9H_{11}NO_2$  bo'lgan to'rtta izomeri aralashmasi hosil bo'ldi. Reaksiya uchun olinqan aromatik uglevodorodni aniqlang (yon zanjirning nitrolarishi hisobga olmasin).

- A) 1-metil-4-etilbenzol  
B) propilbenzol  
C) 1-metil-2-etilbenzol  
D) izopropilbenzol

### Variant № 158

1. Izotoplarni tushunchasining to'g'ri kodasini toping.

- A) neytronlar soni bir xil, lekin protonlar soni har xil bo'lgan atomlar  
B) protonlar soni bir xil, lekin yadroagi neytronlar soni har xil bo'lgan atomlar  
C) protonlar va neytronlar soni har xil, lekin ularning massalari yig'indisi bir xil bo'lgan atomlar  
D) protonlar va neytronlar soni bir xil bo'lgan atomlar

2. Uchinchi davr elementlari atomlarida tartib raqamining ortib borishi bilan ularning qaysususiyatlari ortib boradi?

- 1) elektrmanliylik; 2) metallik;  
3) ionlanish potensiali;  
4) kislordagi birikmalardagi yuqori valentlik; 5) metalmaslik; 6) atom radiusi  
A) 2, 4, 6      B) 1, 4, 5, 6  
C) 1, 3, 4, 5    D) 2, 3, 5

3. Glyukon kislota molekulasi uglelari atomlarining oksidlanish darajasi yig'indisini toping.

- A) 0      B) -6      C) +2      D) +1

4. Palladiy atomidagi s va d elektronlar sonini hisoblang.

- A) 11; 19  
B) 10; 18  
C) 8; 20  
D) 9; 20

5.  $\frac{23}{24}^{23}Fm \rightarrow Bk + x^1\alpha + y^-_2\beta$

15,18 mg fermiy yemirliganda  $36,12 \times 10^{-8}$  ta elektron hosil bo'lsa, berkluy izotopining nisbiy atom massasini aniqlang.

- A) 247      B) 241      C) 249      D) 245

6. Vodorod peroksid molekulasida nechta  $\sigma$ -bog' balladi?

- A) 3  
B) 4  
C) 2  
D) 5

7. Kalsiy karbonat suspenziyasi orqali yetarli miqdorda uglevodorod( $\text{IV}$ ) oksid uzoq vaqt davomida o'tkaziganda, eritmaning elektr o'tkazuvchanligi qanday o'zgaradi?

- A) kamayadi  
B) o'zgarmaydi  
C) avval kamayadi, so'ng ortadi  
D) ortadi

8. Quyidagi tuzlardan qaysilar qidrolizga uchramaydi?

- 1)  $\text{MgCl}_2$ ; 2)  $\text{NaClO}_4$ ; 3)  $\text{KHCO}_3$ ; 4)  $\text{AlCl}_3$ ; 5)  $\text{NaCl}$ ; 6)  $\text{KCN}$ ; 7)  $\text{Al}_2(\text{SO}_4)_3$ ; 8)  $\text{Na}_2\text{SO}_4$   
A) 1, 7      B) 2, 5, 8  
C) 3, 6      D) 3, 4, 6

9.  $A_{(g)} + B_{(g)} = C_{(g)} + D_{(g)}$  reaksiyaning muvozanal konstantasi ma'lum. Temperaturada 1 ga teng bo'lib, A va B moddalarning boshlang'ich koncentrasiysi 2 va 3 mol/l bo'lsa, ularning muvozanal holadagi koncentrasiyalari ( $\text{mol/l}$ ) yig'indisini aniqlang.  
A) 2,6      B) 5      C) 4,6      D) 5,8

10. Natriy gidroksid eritmasi qaysi moddalar bilan reaksiyaga kirishadi?

- A) mis, mis(II) gidroksid  
B) nitrat kislota, natriy xlorid  
C) alyuminij, alyuminij hidroksid  
D) kumush, kumush(I) oksid

11. Mis kuperosi va kristall soda aralashmasi tarkibida 41,4% suv bo'lsa, aralashma tarkibidagi sulfat ionining massa ulushini (%) hisoblang.

- A) 30,7 B) 80      C) 51,2 D) 20

12. Suvli eritmada sodir bo'ladigan caytar reaksiyalarni aniqlang.

- 1) temir(II) nitrat + natriy hidroksid;  
2) rux xlorid + kaliy nitrat;  
3) natriy losfat + kumush nitrat;  
4) natriy hidrokarbonat + sulfat kislota;  
5) natriy sulfat + kaliy hidroksid;  
6) natriy karbonat + kalsiy xlorid  
A) 2, 5      B) 1, 3, 4, 6

- C) 1, 2, 3, 5      D) 4, 6

13. Fenol bilan reaksiyaga kirishmaydigan moddan belgilang.

- A) xlorid kislota  
B) natry  
C) bromli suv  
D) natriy hidroksid

14. Tarkibi  $C_4H_6$  bo'lgan alken izomeralari bromlanganda qanday moddalar hosil bo'ladit?

- 1) 1,2-dibrombutan;  
2) 2,3-dibrombutan;  
3) 1,3-dibrom-2-mellipropan;  
4) 1,2-dibrom-2-mellipropan;  
5) 1,4-dibrombutan  
A) 1,3,5 B) 1,2      C) 1,2,4 D) 3,4


15. Qaysi moddalar kumush oksidining ammiakdag'i eritmasi bilan reaksiyaga kirishmaydi?

- 1) etanal; 2) sirk kislota;  
3) metan kislota; 4) etanol  
A) 2, 4      B) 1, 3      C) 2, 3      D) 1, 4

16. Qaysi modda "gollandiyalik kimyogarlar yog'i" degan tarixiy nom olgan?

- A) propan      B) etilen  
C) benzol      D) giltsin

17. Quyidagi fragment ning bir qismi.



- A) DNA      B) RNA  
C) oligosaxarid D) peptid

18. Ozonning hajmi ulushi 35% bo'lgan azot va ozondan iborat 3 l (n.sh.) aralashma yetarli miqdordagi kaliy yodid eritmasi orqali o'tkazilganda necha gramm yod ajraladi?

- A) 63,5      B) 127  
C) 152,4      D) 254

19.  $\text{CO}_2$  va  $\text{CO}_3^{2-}$  lar uchun quyidagi qaysi xususiyatlar umumiy?

- 1) markaziy atomning  
gibrildanishi;  
2) markaziy atomning valentligi;  
3) fazoyi strukturasi;  
4) markaziy atomning oksidlanish  
darajasi  
A) 1, 2 B) 1, 3 C) 2, 4 D) 3, 4

20. 30 l (n.sh.) ammiak temir  
katalizatori ustidan o'tkazilganda  
( $I = 350^{\circ}\text{C}$ ), hajmi 40 l (n.sh.)  
bo'lgan gazlar aralashmasi hosil  
bo'ldi. Ushbu aralashmadagi  $\text{N}_2$ ,  
 $\text{NH}_3$  va  $\text{H}_2$  larning hajmiy ulushini  
(berilgan tartibda) hisoblang.  
A) 0,125; 0,50; 0,375  
B) 0,10; 0,60; 0,30  
C) 0,25; 0,50; 0,25  
D) 0,125; 0,125; 0,50

21. A ning konsentratsiyasi 3  
marta va B ning konsentratsiyasi  
2 marta ortirliganda reaksiya  
tezligi 72 marta oshsha, qaysi  
reaksiya tenglamasi shu shartni  
qanoatlantiradi?

- A)  $\text{A}_{(g)} + \text{B}_{(g)} \rightarrow \text{A}_2 \text{B}_{(g)}$   
B)  $\text{A}_{(g)} + \text{B}_{(g)} \rightarrow \text{A}_2 \text{B}_{(g)}$   
C)  $\text{A}_{(g)} + \text{B}_{(g)} \rightarrow \text{A}_2 \text{B}_{(g)}$   
D)  $\text{A}_{(g)} + \text{B}_{(g)} \rightarrow \text{A}_4 \text{B}_{(g)}$

22. Qaysi o'zgarishlarda molekula  
tarkibida uglerod qaytariladi?  
1) o-ksilol → tereftal kislotasi;  
2) etil spirt → dietilefir;  
3) izopren → izopentan;  
4) atsetilen → oksalat kislotasi;  
5) virilishka kislotasi → butan kislotasi;  
6) nitrobenzol → anilin  
A) 3, 5 B) 1, 4  
C) 3, 5, 6 D) 1, 2, 6

23. Mis(II) sulfatning 500 ml 0,1  
molyarli enmasidan 19300 KJ  
elektroqidori o'tkazilganda,  
katodda (inert elektrod) necha  
gramm mis ajraladi?

- A) 3,2 B) 6,4 C) 1,6 D) 12,8

24. 30 g glauber lizi  $90^{\circ}\text{C}$  li 100 g  
suvda lo'lalari erilidi. Ushbu  
eritmaning  $15^{\circ}\text{C}$  gacha  
sovulligandagi konsentratsiyasini  
(%) hisoblang. Glauber lizining  
 $90^{\circ}\text{C}$  da eruvchanligi 30 ga,  $15^{\circ}\text{C}$   
da esa 12 ga teng.

- A) 10,7 B) 4,3 C) 4,7 D) 1,9

25. 6,4 g mis sterjen kumush nitrat  
eritasiga solinib, bir ozdan keyin  
olinganda uning massasi 3,04 g  
ga ortgan. Ushbu sterjenni  
butunlay eritish uchun necha

gramm 96% li sulfat kislot asarf  
bo'ladi?

- A) 20,4 B) 16,3 C) 19,6 D) 24,5

26. Ishqor eritmasiga xlor  
shimdirilganda eritmada hosil  
bo'lgan xlorid va gipoklorit  
ionlarining massa farqi 0,8 g ni  
tashkil qilsa, reaksiyaga kirishgan  
gaz hajmini (l, n.sh.) hisoblang.  
A) 2,24 B) 3,55 C) 7,1 D) 1,12

27. Temir bilan reaksiyaga  
(qidirilgan) kirishish uchun  
olingan 150 ml 15 molyarli  
( $\rho = 1,7 \text{ g/ml}$ ) sulfat kislotadan  
110 ml orib qoldi. Reaksiya  
uchun olingan temirning  
massasini (g) hisoblang.  
A) 16,8 B) 11,2 C) 1,68 D) 5,6

28. Tarkiblanda 9,8 g/l sulfat  
kislotasi va 12 g/l natrui gidroksid  
bo'lgan eritmalarни qanday  
hajmnisbatida (mos ravishda)  
aralashtrilganda neytral sharoit  
hosil bo'ladi?

- A) 0,5:1 B) 1:1  
C) 1,25:1 D) 1,5:1

29. Izobutilbromid va 1-brom-  
2,2,3-trimetilbutan aralashmasiga  
mol miqdorda natrui metali la'sir  
ettirilganda hosil bo'ladigan  
moddalarini belgilang.

- 1) 2,2,3,6-tetrametilgeptan;  
2) 3,4-dimetilgeksan;  
3) 2,3,3,6,6,7-geksametiloktan;  
4) 2,3,3,6-tetrametilgeptan;  
5) 2,2,3,6,7,7-geksametiloktan;  
6) 2,5-dimetilgeksan

- A) 1, 3, 6 B) 2, 4, 5

- C) 1, 2, 5 D) 3, 4, 6

30. Benzil spiri, o-krizol va  
pirokatexinidan iborat 0,9 mol  
aralashma 27,6 g natrui bilan  
reaksiyaga kirishishi mal'um  
bo'lsa, aralashmadagi pirokatexin  
massasini (g) aniqlang.

- A) 52 B) 64,8 C) 33 D) 45,4

31. Quyida keltirilgan o'zgarishlar  
natruiasida hosil bo'lgan X<sub>1</sub>, X<sub>2</sub>  
moddalarini aniqlang.



- A) etan va propan

- B) metanol va etan kislotasi


- C) etilen va etilenglikol

- D) atsetilen va sirkva aldegid

32. Etanol va piopanol  
aralashmasiga natrui metali ta'sil  
ettirilganda 5,6 l (n.sh.) vodorod  
ajratish chiqdi. Shuncha  
miqdordagi spirt aralashmasi  
vodorod bromid bilan reaksiyaga  
kirishganda 58,7 g alkibromidlar  
hosil bo'ldi. Boshlang'ich  
aralashma og'lirligini (g) aniqlang.  
A) 27,2 B) 9,6 C) 37,6 D) 18

33. Bromning ( $\text{FeBr}_3$  ishtirokida)  
benzol bilan reaksiyasi natruiasida  
hosil bo'lgan mahsulot mo'l  
miqdordagi ishqor bilan istlov  
berilganda 9,4 g mahsulot olingan  
bo'lsa, reaksiyada qatnashgan  
benzol massasini (g) toping.  
A) 15,7 B) 7,8 C) 3,9 D) 9,3

34. Tarkibida benzol va pirrol  
bo'lgan muddani aniqlang.



- A) 2 B) 1 C) 4 D) 3

35. Tarkibida 0,6 mol  $\text{AgNO}_3$ , 0,2  
mol  $\text{CuSO}_4$  va 0,15 mol  $\text{AuCl}_2$   
bo'lgan eritmalar lok manbaiga  
ketma-ket ulangan. Eritmalar  
orgali 48250 KJ tok miqdori  
o'tkazilganda kalodlarda (iner  
elektrod) ajralgan muddalar  
(berilgan tartibda) massasini (g)  
aniqlang.


- A) 54; 16; 32,83

- B) 64,8; 12,8; 29,55

- C) 54; 12,9; 29,6

- D) 108; 64; 197

36. Bromli suvni  
rangszilantiradigan, kaliy  
permanganat bilan oksidlanguanda  
dikarbon kislotasi hosil qiladigan va  
kumush oksidining ammiakdag'i  
eritmasi bilan cho'kmaga hosil  
qilmaydigan uglevodorod(lar)  
strukturasini aniqlang.



- A) 2              B) 1  
C) 2, 3            D) 1, 3, 4

**Variant № 159**

1. Quyida berilganlardan murakkab moddalarini tanlang.  
1) glikoza; 2) grafit; 3) mis kúporosi; 4) kislorod; 5) silvinit;  
6) azot; 7) ammiak; 8) qora fosfor  
A) 2, 4, 6, 8     B) 1, 3, 5, 7  
C) 1, 4, 6, 7     D) 2, 3, 5, 8

2. Metalmaslar uchun xarakterli bo'lgan xossalarni ko'sating.  
1) s-elementlar;  
2) d-elementlar;  
3) elektrmanfiylik qlymati yuqori;  
4) ko'pchilik metalmaslar p-elementlar;  
5) ionlanish energiyasi kichik;  
6) f-elementlar  
A) 1, 5            B) 1, 2, 6  
C) 3, 4, 5        D) 3, 4

3.  $[Cr(H_2O)_6Cl_2]Cl$ ;  $Fe_3[Fe(CN)_6]_2$  birkimlariagi markaziy atomning oksidlanish darajasi va koordinatsion son qiyamalini aniqlang.

- A) +3; 6; +2, 6  
B) +1; 6; +2, 6  
C) +4; 6; +4, 6  
D) +3; 6; +3, 6

4. Temir(III) ionidagi s- va d-elektronlar sonini hisoblang.  
A) 8; 6  
B) 8; 3  
C) 7; 8  
D) 6



Ushbu yadro reaksiysi asosida 12,7 mg nobeliy yemirilishidan hosil bo'lgan elektronlar sonini hisoblang.

- A)  $12,04 \cdot 10^{19}$      B)  $6,02 \cdot 10^{18}$   
C)  $36,12 \cdot 10^{19}$      D)  $18,06 \cdot 10^{19}$

6. Tarkibida  $\sigma$  - bog'lar yig'indisi 16 bo'lgan molekulani tanlang.

- A)  $Sr_3(PO_4)_2$   
B)  $SrSO_4$   
C)  $(Sr(OH))_2SO_4$   
D)  $Sr(HCO_3)_2$

7. Qaysi moddalar kuchli elektroti hisoblanadi? .

- 1) kalsiy xlorid;  
2) kaliy gidroksid;  
3) ammoniy gidroksid;  
4) sirkva kislota;  
5) natriy gidrokarbonat;

- 6) sulfit kislota

- A) 1, 5            B) 3, 4, 6  
C) 1, 2, 5        D) 4, 6

8. Tuproqning kislotalig'ini yo'qotish uchun qaysi modda ishlataladi?

- A) natriy nitrat  
B) kaliy nitrat  
C) kalsiy xlorid  
D) kalsiy karbonat

9.  $A_{(g)} + B_{(g)} = C_{(g)} + D_{(g)}$  reaksiya uchun B moddadan 1,2 mol dildi va muvozanat qaror topganda ( $K_m = 1$ ) D moddadan 0,8 mol hosil bo'ldi. Reaktorning hajmi 0,004 m<sup>3</sup> bo'lsa, A ning boshlang'ich kohsentratsiyasini (mol/l) toping.  
A) 2,4     B) 0,6     C) 0,8     D) 9,6

10. Quyida berilgan metallardan 1 mol dan olib suvg'a tashlansa, qaysi biri suvdan ko'proq miqdorida (mol) vodorodni siqib chiqaradi?

- A) kaliy            B) natriy  
C) litiy            D) aliuminiy

11. Temir va mis kúporoslari aralashmasi tarkibida 39,2% suv bo'lsa, aralashma tarkibidagi mis kúporosining massá ulushini (%) hisoblang.

- A) 19,4     B) 35,6     C) 41,2     D) 64,4

12. Quyida berilgan ifodalardan to'g'ilarini tanlang.

- 1) kislorod atomi;  
2) sirkva kislota atomi;  
3) malaxit atomi;  
4) olmos' uglerod atomlaridan tashkil topgan;

- 5) vodorod peroksid ( $H_2O_2$ ) vodorod va kislorod molekulalaridan tashkil topgan;  
6) osh tuzi hafriy va xlor molekulalaridan tarkib topgan;  
7) suv molekulasi  $sp^3$  gibridlangan bo'lib, burchakli fazoviy ko'rinishiga ega

- A) 1, 4, 7     B) 1, 4, 5, 7  
C) 2, 3, 5, 6     D) 2, 3, 6

13. ... to'yining uglevodorolar qatoriga kiradi.

- A) Etan, dekan, 2,3,3-trimetiloktan, 2,2-dimetilpentan  
B) Sikkogeksan, propan, benzol, toluel  
C) Etan, atseilen, etilen, izopren  
D) Metan, pentan, propanal, 2,2-dimetilpentan

14. 2-melibutadiyen-1,3 va

kislorod aralashmasi yonishidan 52,8 g  $CO_2$  ajraldi. Ortib qolgan alkadiyen 1,6 g vodorodni birkirib oldi. Boshlang'ich aralashmadagi uglevodorod miqdorini (mol) aniqlang.

- A) 0,24     B) 1,04     C) 0,64     D) 0,40


15. Etiformiat va metilatselatdan iborat aralashmani gidroliz qilish uchun 200 g 10% li natriy ishqor eritmasi sarflandi. Boshlang'ich aralashma massa-sini (g) aniqlang.

- A) 37     B) 72     C) 59     D) 44

16. Termik kreking usulida olingan benzинг tegishlisifatlarni tanlang  
1) tarkibida alkenlar miqdori ko'proq;  
2) tarkibida izoalkanlar miqdori ko'proq;

- 3) uzoq vaqt saqlash mumkin;  
4) uzoq vaqt saqlab bo'lmaydi.  
A) 1, 3     B) 2, 4     C) 1, 2     D) 1, 4

17. Quyidagi fragment gidrolizidan qanday molekulalar hosil bo'ladi?



- A) guanin, uratsil, sitazin, dezoksiribozza, fosfat kislota

- B) adenin, timin, sitozin, riboza, iostat kislota  
C) adenin, sitozin, uratsil, riboza, fosfat kislota  
D) guanin, sitozin, limin, dezoksiribozza, fosfat kislota

18. Vodorod va kisloroddan iborat 50 g aralashma portlatlig'andan so'ng qaysi gazdan necha gramm ortib qoldi? Boshlang'ich aralashmadagi vodorodning hajmi ulusli 80% ga teng.

- A) kislorod, 22,4  
B) vodorod, 38,75  
C) kislorod, 10  
D) vodorod, 5

19.  $\text{SO}_3$  va  $\text{SO}_2$  molekulalar uchun quyidagi qaysi xususiyat(lar) umumiy?

- 1) markaziy atomning gibridlanishi;
  - 2) markaziy atomning valentligi;
  - 3) molekulaning fazoviy struklurasi;
  - 4) bo'g' qubli, molekula qutbsiz bo'lisbi
- A) 1    B) 2,3    C) 1,4    D) 3

20. Qaysi moddaning 1 kg miqdorida 0,2743 g elektron mavjud (elektronning massasi 9,101 kg)?

- A)  $\text{D}_2\text{O}$     B)  $\text{N H}_3$     C)  $\text{H}_2\text{S}$     D)  $\text{CH}_4$

21.  $\text{AB}_{2(g)} + \text{B}_{2(g)} \rightarrow \text{AB}_{3(g)}$  reaksiyada  $\text{AB}_2$  ning konsentratsiyasi 2 marta oshirilsa,  $\text{B}_2$  ning konsentratsiyasi 5 marta kamaytirilsa, to'g'ri reaksiya tezligi necha marta ortadi?

- A) 20    B) 0,2    C) 0,4    D) 0,8

22. Quyidagi qaysi o'zgarishlarda molekula tarkibidagi uglerod qaytariladi?

- 1) 1,3-dibrombutan → metilsiklopropan;
  - 2) toluol → benzil xlorid;
  - 3) metakriliksikota → izomoy kislota;
  - 4) atsetilen → etan;
  - 5) metanal → melan kislota;
  - 6) propanol-2 → atseton.
- A) 1, 3, 4    B) 2, 5, 6    C) 5, 6    D) 3, 4

23. Kumush nitratning 500 g 6,8% li eritmasi elektroliz qilinganda anodda (inert elektrod) 22,4 l (n.sh.) gaz ajraldi. Elektrolizidan so'ng entmadagi moddaning massa ulushini (%) aniqlang.

- A) 4,7    B) 3,6    C) 2,8    D) 1,9

24. Tarkibida 25% qo'shimcha modda bo'lgan 200 g marmarning termik parchalanishidan olinqan gaz cho'lgangan ko'mir ustidan o'tkazilganda qancha hajm (l, n.sh.) gaz olinadi?

- A) 67,2    B) 44,8    C) 33,6    D) 38,08

25. 19,2 g misni eritish uchun unga oldin konsentratsiyan sulfat kislota va so'ngra to'la eriguncha suyu tilirligan nitrat kislota qo'shildi. Olinqan mis tuzini 200° C temperaturada massasi o'zgarmay qolguncha qizdirilganda 32 g mahsulot olindi.

Mahsulot tarkibidagi moddalar massa nisbatini aniqlang.

- A) 1:2    B) 1:1,5    C) 1:1    D) 1:3

26. 24,3% li 70 g kumush nitral eritmasiga tarkibida ekvivalent miqdorda natriy galogenid bo'lgan 80 g eritma qo'shildi. Cho'kma ajratilgandan so'ng 6,48% li eritma hosil bo'ldi. Reaksiyada qaysi tuzning eritmasi ishlatalgan?

- A)  $\text{NaBrB}$     B)  $\text{NaClC}$     C)  $\text{NaF}$     D)  $\text{NaI}$

27. Sulfat kislotaning 15% li 300 g eritmasiga necha litr (n.sh.) sulfat angidrid shimdirliganda 50% li sulfat kislota eritmasi hosil bo'ladii?

- A) 40,6    B) 145    C) 53,7    D) 124

28. Sulfit kislota bilan vodorod sulfid orasidagi reaksiya nalijsida 80 g otingugur hosil bo'lsa, reaksiya uchun qanday hajm (l, n.sh.) vodorod sulfid olinqan?

- A) 44,8    B) 37,3    C) 56    D) 11,2

29. 3-brom-2,2-dimetil-3-etylpentan va 1-brom-2,3,3-trimetilbutan natriy bilan o'zaro ta'sirlashganda (Vyurs reaksiyasi bo'yicha) qanday alkanlar hosil bo'lmaydi?

- 1) 2,2,9,9-tetrametil-3,8-dietyldekan;
  - 2) 2,2,5,5-tetrametil-3,3,4,4-tetraethylgeksan;
  - 3) 2,2,5,5,6-pentametil-3,3-dietylgeptan;
  - 4) 2,2,3,6,7,7-geksametiloktan;
  - 5) 2,2,5,6,6-pentametil-3,3-dietylgeptan;
  - 6) 2,3,3,6,6,7-geksametiloktan.
- A) 1, 4, 6    B) 2, 4, 5    C) 2, 3, 5    D) 1, 3, 6

30. Karbol va sirkva kislotasidan iborat aralashmani neytrallash uchun 200 g 10% li natriy gidroksid eritmasi sarlandi. Xuddi shunday aralashmagga bromli su ta'sir ettilriganda 66,2 g cho'kma hosil bo'ldi. Boshlang'ich aralashmadagi kislotalarning mol nisbatini aniqlang.

- A) 1:1,5    B) 1:1    C) 1:1,75    D) 1:2

31. Quyida keltirilgan o'zgarishlar nalijsasida hosil bo'lgan X, Y, Z moddalarni aniqlang.



- A) etilenglikol, etanol, 1,2-dixloreлан  
B) etanol, etan kislota, xlorsirka kislota  
C) etanol, etanol, etilxlorid  
D) etanol, etanol, etanol

32. 18 g A aldegidning qaytarilishidan o'shancha uglerod tutgan B spirit hosil bo'ldi. B spirit mo'l miqdorda natriy metali ta'sir etganda 2,8 l (n.sh.) gaz ajraldi. B spirit strukturasini aniqlang.


- A) izopropil spirti  
B) izobutil spirti  
C) izogeksil spirti  
D) izopentil spirti

33. 34 g murakkab eftin gidroliz qilish uchun olingah 200 g 10% li kally gidroksid eritmasidan 60 g ortib goldi. Murakkab eftiralar nomini aniqlang.

- 1) metilbenzoat;  
2) fenilformiat;  
3) benziflormiat;  
4) fenilatsetat.

- A) 2, 3    B) 1, 4  
C) 1, 3, 4    D) 1, 2, 3

34. Taklif etilgan strukturalardan qaysi biri timinga mos keladi?



- A) 2    B) 1    C) 4    D) 3

35. Tarkibida 0,2 mol rux xlorid va 0,1 mol mis(II) xlorid bo'lgan eritma orqali 5790 sekund davomida 5 A tok o'tkazilganda anodda (inert elektrod) ajralib chiqgan modda hajmi (l, n.sh.) aniqlang.

- A) 3,36    B) 6,72    C) 4,48    D) 2,24

36. 0,6 mol toluolni yorug'lik ishtirokida xlorlanganda  $\text{C}_6\text{H}_5\text{CH}_2\text{Cl}$ ,  $\text{C}_6\text{H}_5\text{CHCl}_2$  va

$C_6H_5CCl_3$ -lar 3:2:1 mol nisbatda  
hosil bo'lsa, sarflangan xlor  
hajmini (I, n.sh.) hisoblang.  
A) 22,4 B) 11,2 C) 67,2 D) 44,8

**Variant № 160**

1. Izobarlar tushunchasining to'g'ri ifodasini toping.  
A) neytronlar soni bir xil, lekin protonlar soni har xil bo'lgan atomlar  
B) protonlar soni bir xil, lekin yadrodag'i neytronlar soni har xil bo'lgan atomlar  
C) protonlar va neytronlar soni har xil, lekin ularning massalari yig'indisi bir xil bo'lgan atomlar  
D) protonlar va neytronlar soni bir xil bo'lgan atomlar

2. Elementlar tarib raqami ortishi bilan (asosiy guruhda) qaysi xossal davrlari ravishda o'zgarishi kuzatiladi?  
1) atomning yadro zaryadi;  
2) atom radiusi;  
3) nisbiy atom massa;  
4) ionlanish energiyasi;  
5) elektrmaniflylik;  
6) tashqi energetik qavatdag'i elektronlar soni  
A) 2, 4, 5, 6 B) 2, 4, 5  
C) 1, 3, 4, 6 D) 1, 3

3.  $[Pt(NH_3)_5Cl]Cl_3 \cdot H[PF_6]$  birkimlaridagi markaziy atomning oksidlanish dörájasini va koordinatsion son qiymatini aniqlang.  
A) +4, 5; +5, 5  
B) +4, 6; +6, 6  
C) +4, 6; +5, 6  
D) +6, 6; +6, 5

4. Mis atomidagi s- va d-elektronlar sonini hisoblang.  
A) 9; 10  
B) 7; 10  
C) 7; 11  
D) 8; 9

5.  $^{239}_{\text{Pu}} \rightarrow x\alpha + y\beta + {}^{214}_{\text{Bi}} + {}^{90}_{\text{Rn}}$   
Ushbu yadro reaksiyasida  
54,18  $\times 10^{19}$  dona pozitron hosil bo'lsa, reaksiyada parchalangan plutoni miqdorini (mg) hisoblang.  
A) 42,5 B) 53,6 C) 67,4 D) 71,7

6. Quyidagi molekulalarning qaysi birida  $\sigma$  - bog' bo'ladi?  
A)  $HClO_3$   
B)  $HClO_4$   
C)  $HClO$



7. Kuchli elektrolitlar keltirilgan qatorni tanlang.  
A) ammoniy atsetat, vodorod sulfid, nitrit kislota  
B) karbonat kislota, perxlorat kislota, nitrat kislota  
C) kremini kislota, sirkva kislota, nitrat kislota  
D) sulfat kislota, nitrat kislota, natriy atsetat

8. Qaysi modda luproqning kislotaligini oshiradi?  
A) potash  
B) natriy nitrat  
C) natriy xlorid  
D) ammoniy nitrat

9.  $A_{(g)} + B_{(g)} = C_{(g)} + D_{(g)}$  reaksiya hajmi 10 litr bo'lgan idishda ollib borildi. Reaksiya uchun A va B dan mos ravishida 8 va 12 moldan olingan bo'lsa, ularning muvozanat holatdagi konserntsatsiyalarini ( $\text{mol/l}$ ) hisoblang ( $K_m = 1$ ).  
A) 0,34 B) 0,72  
B) 8 C) 12  
C) 0,8 D) 1,2  
D) 0,56 E) 0,64

10. Ishqoriy elementlar ... - elementlar oиласига mansub.  
A) p B) s C) f D) d

11. Temir va mis kuporoslari aralashmasi tarkibida 39,2% suv bo'lsa, aralashma tarkibidagi temir(II) sulfatning massa ulushini (%) hisoblang.  
A) 19,4 B) 35,6 C) 41,2 D) 64,4

12. Ammiakning mol'i miqdordagi kislorodda (platina ishtirokida) yozgilishidan olingan mahsulot o'z-o'zidan jigarranga kiradi. Shu mahsulotning kislordi ishtirokida suvda eritilishidan hosil bo'lgan moddanaving molekulyar massasini toping.  
A) 63 B) 98 C) 17 D) 47


13. ... siklopentenning izomerlari hisoblanadi.  
A) metilsiklobuten, siklopentan, 2,2-dimetilbutan  
B) 2-metilbutadiyen-1,3, pentin-1, pentadiyen-1,3  
C) penten-2, 2-metilbuten-2, metilsiklobutan  
D) izopren, pentadiyen-1,2, siklogexen

14. Izobutilen va metilsiklopropandan iborat 9 I (n.sh.) aralashma va mo'l miqdorda olingan kislorod portlatiligidan so'ng hosil bo'lgan suv bug'i kondensatsiyalandi. Qolgan gazlar aralashmasi 50 I (n.sh.)ni tashkil etsa, reaksiya uchun olingan kislorodning hajmini (I, n.sh.) toping.  
A) 68 B) 54 C) 36 D) 14

15. Gidroliz reaksiyasingin barcha mahsulotlari kumush oksidning ammiakdag'i eritmasi bilan reaksiya yaga kirishadigan muddani aniqlang.  
A) vinilformiat B) etilbenzoat  
C) metilformiat D) etilatsetat

16. Oqayash temperaturasi yuqori, suvda eruvchanligi kam bo'lgan muddani belgilang.  
A) enant kislota  
B) valerian kislota  
C) kapron kislota  
D) moy kislota

17. Quyidagi molekulalardan qaysi biri RNA hidrolizida hosil bo'lmaydi?



- A) 2 B) 1 C) 4 D) 3

18. Havo va azot aralashmasidagi azotning hajmiy ulushi 85% bo'lishi uchun havo va azotni qanday hajmiy nisbatda olish kerak?  $\phi(N_2) = 0,75$   
A) 1,5:1 B) 2:1 C) 2,5:1 D) 1:1

19.  $BeCl_2$ ,  $BeF_2$ ,  $CO_2$  molekulalari uchun quyidagi qaysi xususiyatlarni umumiyligi?

- 1) markaziy atomning gibridlanishi;
  - 2) markaziy atomning valentligi;
  - 3) molekulaning fazoviy strukturasi;
  - 4) bog' qutbli, molekula qutbsiz bo'llishi
- A) 1, 2 B) 1, 3, 4  
C) 1, 2, 3, 4 D) 3, 4

**20.** Silan va metandan iborat 11,2 l (n.sh.) gazlaralaralashmasi yondirilganda 6 g qatligi modda ajraldi. Boshlang'ich aralashmadagi metanning hajmi ulushi (%) aniqlang.  
A) 60 B) 20 C) 40 D) 80

**21.**  $N H_{3(g)} + O_{2(g)} = NO_{(g)} + H_2O_{(g)}$ : sistemaning bosimi ikki marta oshirilsa, to'g'n reaksiya tezligi necha marta ortadi?

A) 512 B) 32 C) 64 D) 256

**22.** Quyidagi qaysi o'zgarishlarda molekul farkibidagi uglerod atomining oksidalish darajasi o'zgarmaydi?

- 1) metakril kislota → izomoy kislota;
  - 2) etan → nitroetan;
  - 3) etanol → etilokrid;
  - 4) metilbenzol → benzil spirit;
  - 5) propanol → propil spirit;
  - 6) xlorbenzol → karbol kislota
- A) 2,4 B) 1,5 C) 2,3 D) 3,6

**23.** 19300 sekund davomida 2 A tok kuchi bilan 250 ml 0,4 molyarli kadmiy sullati eritmasi elektroliz qilinganda, katoda (inerl elektrod) ajralgan kadmiy massasini (g) hisoblang. (vodorodning ajralishi hisobga olinmasin)  
A) 22,4 B) 104 C) 11,2 D) 52

**24.** 2,8 g ishqoriy metall suvdagi eritilganda 4,48 l (n.sh.) gaz ajralib 10% li eritma hosil bo'lisa, reaksiya uchun necha gramm suv olingan?

- A) 103,2 B) 86,4  
C) 7,2 D) 93,6

**25.** Tarkibida 0,8% natriy gidrosid va 1,06% natriykarbonat bo'lgan 200 g eritmaga, natriy gidrokarbonatning 200 g eritmasi qo'shilganda natriy gidrosidning massa ulushi 0,2% gacha kamaygan. Hosil bo'lgan eritmadagi karbonat anionining massa ulushini (%) aniqlang ( $\sigma = 100\%$ ).  
A) 0,6 B) 1,06 C) 0,8 D) 0,2

**26.** 85 g 20% li kumush nitrat eritmasiga tarkibida ekvivalent miqdorda natriy galogenid bo'lgan 65 g erita qo'shilib, so'ng cho'kma ajratilgandan so'ng 6,72% li eritma hosil bo'ldi. Reaksiyada qaysi tuzning eritmasi ishlataligan?

A) NaBr B) NaCl C) NaF D) NaI

**27.** Mo'l miqdorda olingen temirning 163 ml 98% li ( $\rho = 1,84$  g/ml) sulfat kislota bilan reaksiyasi (qizdirilganda) natrjasida hosil bo'lgan sulfit angidrid hajmini (l, n.sh.) hisoblang.  
A) 33,6 B) 67,2 C) 89,6 D) 44,8

**28.** Sulfat kislotaning 0,2 molyarli eritmasidan 250 ml layyorlash uchun uning 0,8 M lernetmasidan qancha hajim (ml) olish kerak?  
A) 25,5 B) 50 C) 62,5 D) 31,5


**29.** Uchlamchibutilbromid, ikkilamchibutilbromid vaizobutilbromid natriy bilan ta'sirishganda (Vyurs reaksiyasi bo'yicha) hosil bo'lgan alkanlardagi birlamlach, ikkilamchi va uchlamchi uglerod atomlarining sonini aniqlang.

- A) 28; 8  
B) 28; 8; 4  
C) 26; 8; 8  
D) 26; 8; 4

**30.** 78 g benzolni nitrolashdan olingen modda qaytarlib, so'ngra to'la bromlanganda necha gramm mahsulot hosil boladi?

- A) 123 B) 363 C) 330 D) 93

**31.** Quyida keltirilgan o'zgarishlar natijasida hosil bo'lgan  $X_3$  va  $X_5$  moddalarini aniqlang.



- A) benzo, 2,4,6-trinitrotoluol  
B) etan, 1,3,5-trinitrobenzol  
C) benzo, 2,4,6-trinitrokuromol  
D) benzo, 1,3,5-trinitrobenzol

